



**XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI
KENGASHIGA SAYLOV O‘TKAZUVCHI VILOYAT
SAYLOV KOMISSIYASI
QARORI**

2021-yil 26 noyabr

46 -son

Qarshi shahri

**Xalq deputalari Qashqadaryo viloyati Kengashi deputatligiga
bo‘shab qolgan deputatlar saylovini o‘tkazuvchi saylov okruglarini tuzish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 9 va 20-moddalari, Markaziy saylov komissiyasining 2020 yil 26 avgustdagi “COVID-19 pandemiyasi davrida bo‘shab qolgan o‘rinlarga deputatlar saylovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1033-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi deputatligiga bo‘shab qolgan deputatlar saylovini o‘tkazuvchi 51-Namaton va 53-Qutchi saylov okruglari quyidagi tartibda tuzilsin:

51-Namaton saylov okrugi

(**Manzili** - Shahrisabz shahri, Shahrisabz geodeziya va ekologiya texnikumi binosi).

Shahrisabz shahrining: “Ipak yo‘li” mahalla fuqarolar yig‘inining Ipak yo‘li ko‘chasi 102, 104, 106, 108, 110, 112, 114, 116, 118, 120, 122, 122a, 124-raqamli uylari, “Kamolot” mahalla fuqarolar yig‘inining “Ipak yo‘li” ko‘chasi 126, 128, 130, 132, 134, 136, 138, 140, 144, 146, 148, 150, 152, 154, 156, 158, 160-raqamli uylari, “G‘alaba” mahalla fuqarolar yig‘inining Ipak yo‘li ko‘chasi 84-94-raqamli uylari va “Bunyodkor”, “Kesh”, “Ma‘rifat”, “Do‘stlik”, “Turon”, “Namaton”, “Guliston”, “Uymovut”, “Qorasuv” va “Sinabog‘” mahalla fuqarolar yig‘inlari chegaralarida;

Yakkabog‘ tumanining: “Katta bog‘” va “Darxon” mahalla fuqarolar yig‘inlari chegaralarida (32,4)

53-Qutchi saylov okrugi

(**Manzili** - Shahrizabz tumani, Obod mahallasi, Obod ko'chasi, 36-uy, Obod mahalla fuqarolar yig'ini binosi).

Shahrizabz tumanining: Qushchinor mahalla fuqarolar yig'inining janubiy qismi va Shiramon, Qutchi, Chuqun, Tepar, Xazara, Olmazor, Achchig'i, Toshbuloq, Xitoy, Xisor mahalla fuqarolar yig'inlari hududlari chegaralarida (**29,1**).

2. Mazkur qaror rasmiy veb-saytlarda e'lon qilinsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat saylov komissiyasi raisi o'rinbosari N.Ro'ziyev zimmasiga yuklansin.

**Qashqadaryo viloyati
saylov komissiyasi raisi**



O'.Ostanov